

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

A. Jo'raqulov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maqollarning lingvomadaniy jihatlari va strukturaviy, semantik xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilingan. Frazeolog va paremiolog olimlarning muxtasar fikrlari tahlil qilingan. Maqol va matallarning umumiy tasnifi yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: paremiologiya, paremiologik birlik, maqol, frazeologik birlik, frazeologiya, diskurs, semantika, didaktika, paremiya, nutq, og'zaki nutq, yozma nutq.

doi: <https://doi.org/10.2024/pnnqbb88>

Hikmatlar jamlangan manba – bu maqollar, matallar, aforizmlar bo'lib, ularni filologiyaning paremiologiya deb ataladigan bo'limi o'z ichiga qamrab oladi. Maqollarni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida bir vaqtning o'zida ham nutqda, ham tilda ilmiy nuqtai nazardan o'rganish mumkin, ya'ni matnda va tizimda. Maqollar to'liq mustaqil matn hisoblanib, har qanday muloqotda xabar kognitiv, pragmatik ma'noga ega bo'lib keladi (Safarov 2023: 6). Xabarni aniqlash uchun umumiy bilimlar fondiga ega bo'lish kerak, lekin, bizningcha, bu xususiyat har qanday matn, xabargagina xos emas, balki to'liq mustaqil matn sifatida maqollarga ham tegishlidir. Eng muhimi, bunday umumiy bilimlar yig'indisi bir etnik, ijtimoiy, madaniy hamjamiyat vakillarini birlashtiradi. Bu esa maqol va matallarni lingvomadaniy jihatdan ko'rib chiqishga imkon beradi.

S.I. Ojegov maqolga “ibratli mazmundagi qisqa xalq maqoli, xalq aforizmi” deb ta'rif beradi (Ojegov 1991: 566), ya'ni maqollar xalq orasida xalq og'zaki ijodida paydo bo'lib, ular xalqning ko'p yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqib, uning tarixi, turmush tarzi, madaniyati, taraqqiyotini ifodalaydi.

Maqollar bir tomondan hayotning turli jabhalari haqidagi “falsafiy gaplar”, “tarbiyalar”, “aforizmlar” bo'lsa, (Mokienko 2010: 6) boshqa tomondan psixologik va tarbiyaviylik darajasi yuqori bo'lgan birliklar hisoblanadi. Bular “axloq qoidalari kodeksi”, “borliqqa berilgan baho” (Teliya 1996: 74), shuningdek, xalqning madaniy boyligi va strategik qo'llaniladigan notiqlik qurolidir.

Maqolning semantik tabiati, A.I. Molotkov ta'kidlaganidek, hukmga asoslanadi (Molotkov 1968: 16). Maqol ifodasining ikki tomonlamaligi gap mazmunining to'g'ridan-to'g'ri va allegorik rejasidan iborat va janr sharoiti - ularning masallik tabiati bilan bog'liq, chunki ular xalq amaliy san'ati mahsulidir.

A.N. Baranov va D.O. Dobrovolskiy maqollarni gap qurilishiga ega bo'lgan frazeologik birliklar deb belgilaydilar, haqiqatdan ham ularda umumiylik g'oyasi tavsiya yoki maslahat (axloqiy ta'lim) ta'limoti semantikasi va diskursiv jihatdan mustaqilligini bildiradi” (Baranov va Dobrovolskiy 2008: 69).

¹ A.Jo'raqulov, SamDCHTI nemis tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

A.V. Kunin maqollarni kommunikativ frazeologik birliklar deb ataydi, maqollarning muhim xususiyatlaridan psixologik va didaktik ma'noni, ritmik tarzda tashkil etilgan paremiologik birlikni ajratib ko'rsatadi (Kunin 1996: 177).

Biz odatda matnda maqolga duch kelganimizda, "nutq shaklidan, og'zaki, yozma, kontekstda yoki tashqarida bo'lishidan qat'i nazar" (Yaxshiyev 2021: 15), biz uni deyarli har doim bu maqol ekanligini tushunamiz, maqol va undagi so'zlar odatiy tildagi mavjud ma'nolarda bo'lmasa ham, uning nimani anglatishini, gap nima haqida borayotganini, tushunib yetamiz.

Nemis frazeolog olimi V.Fleysher maqollarni oddiy odamlar tajribasini umumlashtiruvchi makromatnlar deb ataydi. Shu ma'noda bunday makromatnlarning bir yoqlamaligi va bir-biriga zid bo'lgan kontrast matnlarining ko'pligi haqida aytish mumkin. Bu maqollar paydo bo'lgan davrning axloqiy qadriyatlariga asoslanadi [Fleisher 1982: 81].

Maqollarga bag'ishlangan asarlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mualliflar bu frazeologik birliklarni individual ta'riflaydilar, lekin barchasida maqollarni belgilash turlaridan biri sifatida ularni har xil yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin: sotsiolingvistik, lingvokulturologik va kognitiv. Ushbu tadqiqotda oldingi ta'riflarni umumlashtirgan holda, maqol bir etnik jamoa vakillarining umumiy bilimlarini aks ettiruvchi va har xil nutq ko'rinishlarida o'zining pragmatik imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradigan tarixan mustahkamlangan mustaqil mikromatn sifatida bayon etiladi.

Maqollarning maqomi va frazeologiyaga mansubligi masalasi hozirda ochiqlicha qolmoqda. Ba'zilar maqol iboralarni frazeologiyaning bir qismi deb hisoblashadi (Chernisheva, Shanskiy, Kunin), boshqalari maqol va matallarni frazeologik birliklardan ajratib ko'rsatadi (Tagiev, Babkin, Kopylenko).

G.L. Permyakovning tasnifiga ko'ra paremiologik birliklar uchta xususiyat asosida qurilgan bo'lib, bular - lingvistik, mantiqiy-semiotik va obyekt shakli nuqtai nazardan o'rganiladi (Permyakov 2001: 9). Shunday qilib, maqollarning yagona universal tasnifini yaratish eng qiyin masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Болтакулова Г. Ф. Синтаксическая дистрибуция темпоральных компонентов в английском и узбекском языках в сопоставительном аспекте // Ученый XXI века. – 2016. – №. 2-3.
- [2]. Баранов А. Н. Аспекты теории фразеологии / А. Н. Баранов, Д. О. Добровольский. – М.: Знак, 2008. – 656 с.
- [3]. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка / А. В. Кунин. – М.: «Высшая школа». Дубна: издательский центр «Феникс», 1996. – 381 с.
- [4]. Мокиенко В. М. Современная паремиология (Лингвистические аспекты) / В. М. Мокиенко // Мир русского слова. – 2010. – № 3. – С. 6-20.
- [5]. Ожегов С. И. Словарь русского языка / С. И. Ожегов. – М.: «Русский язык», 1991. – 916 с.
- [6]. Пермяков Г. Л. Пословицы и поговорки народов Востока / Г. Л. Пермяков. – М.: Лабиринт, 2001. – 624 с.
- [7]. Сафаров Ш. Сўзлар маъно структурасидаги ўзгаришлар ҳақида // Хорижий филология. Тил. Адабиёт. Таълим. – Самарқанд: СамдЧТИ, № 3. (88), 2023. – Б. 5-7.
- [8]. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В. Н. Телия. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

- [9]. Фразеологический словарь русского языка под редакцией А. И. Молоткова. - М.: Советская энциклопедия, 1968. – 543 с.
- [10]. Яхшиев А.А. Немис тили оғзаки нутқ формулалари // Хорижий филология. Тил. Адабиёт. Таълим. – Самарқанд: СамдЧТИ, № 3. (80), 2021. – Б. 11-16.
- [11]. Fleischer, W. *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache* / W. Fleischer. - Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1982. – 250 S.